



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abdusalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozoov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozoov Komil Bahromovich</i>	122

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Urozo Komil Bahromovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisod fanlari doktori, professor
Email: komilurozov@gmail.com

Sharifov Davlatjon Nosirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Email: davlatjonsarifov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari, axborot manbalari, auditorlik dalillarini shakllantirish yo'nalishlari hamda daromadlarni tahliliy amallar asosida baholash masalalari tadqiq etilgan. Sug'urta tashkilotlarida daromadlar sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari, investitsion daromadlar, komission mukofotlar va boshqa operatsion tushumlar orqali shakllanishi sababli ularni audit qilish oddiy xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan murakkabroq jarayon hisoblanadi. Maqolada "O'zbekinvest" AJ misolida sug'urta xizmatlari bo'yicha daromadlar dinamikasi, qayta sug'urtalash ta'siri, davr xarajatlari va asosiy faoliyat natijasi o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta daromadlari, daromadlar auditini, auditorlik dalillari, qayta sug'urtalash, sug'urta zaxiralari, MHXS 17, ichki nazorat, tahliliy amallar

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for organizing the audit of revenue in entities providing insurance services, the sources of audit information, the formation of audit evidence, and the assessment of insurance revenue through analytical procedures. Since insurance companies generate revenue from insurance premiums, reinsurance transactions, investment income, commissions and other operating income, auditing such revenue is more complex than auditing ordinary business entities. Using the example of Uzbekinvest JSC, the article analyzes the dynamics of insurance revenue, the effect of reinsurance, period expenses and operating results in an integrated manner. The study proposes improvements to revenue auditing based on a risk-oriented approach, separate control over insurance reserves and unearned premiums, evaluation of internal controls, and consideration of IFRS 17 requirements.

Keywords: insurance, insurance revenue, revenue audit, audit evidence, reinsurance, insurance reserves, IFRS 17, internal control, analytical procedures

Абстрактный: В данной статье исследуются теоретико-методологические основы организации аудита доходов в субъектах, предоставляющих страховые услуги, информационные источники, направления формирования аудиторских доказательств, а также вопросы оценки доходов на основе аналитических действий. Поскольку доходы в страховых организациях формируются через страховые премии, операции по перестрахованию, инвестиционные доходы, комиссионные вознаграждения и другие операционные поступления, их аудит является более сложным процессом по сравнению с обычными хозяйствующими субъектами. В статье на примере АО «Узбекинвест» проанализирована динамика доходов от страховых услуг, влияние перестрахования, текущие расходы и результаты основной деятельности в взаимосвязи.

Ключевые слова: страхование, страховые доходы, аудит доходов, аудиторские доказательства, перестрахование, страховые резервы, МСФО 17, внутренний контроль, аналитические действия.

Kirish (Введение/Introduction).

Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotda risklarni taqsimlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining mulkiy manfaatlarini himoya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijasi, avvalo, sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari, investitsion faoliyat va boshqa operatsion tushumlarning to'g'ri hisobga olinishi bilan belgilanadi. Shu sababli daromadlar auditining sifatli tashkil etilishi nafaqat korxonada moliyaviy hisobotning ishonchligini, balki sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchni ham oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni sug'urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Shuningdek, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun auditorlik tekshiruvlarining huquqiy asoslarini belgilaydi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun esa xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur normativ-huquqiy baza sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditini uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi sug'urta daromadlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Sug'urta mukofoti kelib tushgan paytda tashkilot daromadga ega bo'lgandek ko'rinsa-da, amalda ushbu tushumning muayyan qismi kelgusida sug'urta hodisalari yuzaga kelganda tovon to'lash majburiyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois auditor

daromadlarni tekshirishda faqat tushum summasini emas, balki shartnoma muddati, ishlab topilgan va ishlab topilmagan mukofotlar, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urtalash ulushi, debitorlik qarzlari va investitsion daromadlarning moliyaviy hisobotga ta'sirini ham chuqur tahlil qilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini tashkil etish tartibini o'rganish, audit jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari va tahliliy amallarni tizimlashtirish hamda daromadlar auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini samarali tashkil etish masalasi zamonaviy audit nazariyasi va amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi, sug'urta faoliyatini raqamlashtirish hamda riskga asoslangan nazorat tizimlarining keng qo'llanilishi daromadlarni tan olish va audit qilish metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda sug'urta kompaniyalarida daromadlarni tan olishning nazariy va amaliy jihatlarini keng tadqiq etilmoqda. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda IFRS 17 sug'urta shartnomalarini hisobga olishning yangi

mexanizmlarini joriy etgani hamda daromadlarni aniqlash va audit qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [1]. Tadqiqotchilar mazkur standart sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini yanada shaffof aks ettirish imkonini berishini qayd etadilar.

Daromadlar auditining nazariy asoslari va xalqaro audit standartlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarda auditorlik risklarini baholash va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish muhim omil sifatida ko'rilgan [2]. Mualliflar daromadlar bilan bog'liq xatolar va firibgarlik holatlarini aniqlashda riskga asoslangan audit yondashuvi samarali ekanligini asoslab beradilar.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida daromadlarni audit qilishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari va investitsiya daromadlarining audit obyektlari sifatidagi ahamiyati yoritilgan [3]. Ushbu tadqiqotlar daromadlarning to'g'ri tasniflanishi va hisobda aks ettirishini tekshirish audit sifatini oshirishini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining audit jarayonlariga joriy etilishi bo'yicha ilmiy ishlarda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati audit samaradorligini oshirishi ta'kidlangan [4]. Ayniqsa, sug'urta kompaniyalarida elektron ma'lumotlar bazalari asosida daromadlarni monitoring qilish auditorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Ichki auditning sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi o'rni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda korporativ boshqaruv sifatini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashda ichki audit xizmatining roli alohida qayd etilgan [5]. Mualliflarning fikricha, ichki audit tizimi daromadlar hisobining to'g'riligini ta'minlashda muhim nazorat mexanizmi hisoblanadi.

Xorijiy tajriba tahlillari sug'urta bozorida auditorlik tekshiruvlarini avtomatlashtirish, uzluksiz audit va masofaviy monitoring texnologiyalarining keng qo'llanilayotganligini ko'rsatadi [6]. Bu esa daromadlar auditini jarayonida operativlik va aniqlikni oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, auditorlarning malakasini oshirish va audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslangan [7].

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda auditning ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda daromadlar hisobining shaffofligi investorlar va manfaatdor tomonlar ishonchini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligi ko'rsatib berilgan [8]. Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvlari orqali moliyaviy risklarni kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan.

So'nggi ilmiy manbalarda ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish hisobotlarining sug'urta kompaniyalari faoliyatiga integratsiyalashuvi natijasida audit jarayonlari yanada murakkablashayotgani qayd etilgan [9]. Bu holat auditorlardan nafaqat moliyaviy, balki nomoliyaviy ko'rsatkichlarni ham baholashni talab etmoqda.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini takomillashtirish uchun xalqaro standartlarni qo'llash, riskga asoslangan audit yondashuvini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil, omilli tahlil, hujjatlarni tekshirish, ichki nazoratni baholash, buxgalteriya registrlari va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish usullaridan foydalanildi. Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditini o'rganishda axborot manbalari darajasi, auditorlik dalillari sifati va tahliliy amallar natijadorligi asosiy mezon sifatida olindi.

Maqolada "O'zbekinvest" AJ bo'yicha BMI materiallarida keltirilgan ayrim ko'rsatkichlar tahliliy asos sifatida qo'llanildi. Jumladan, 2024 va 2025-yillarda sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan sof tushum, yalpi foyda, davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari o'zaro bog'liq holda baholandi. Bunda asosiy e'tibor daromadlarning to'liqligi, tegishli davrga mansubligi, hujjatlar bilan tasdiqlanganligi va moliyaviy natijaga ta'siriga qaratildi.

Audit metodologiyasi quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslandi: birinchidan, sug'urta daromadlari shakllanish manbalari aniqlanadi; ikkinchidan, ushbu manbalar bo'yicha hujjatlar va registrlar o'rganiladi;

uchinchidan, ichki nazorat tizimi baholanadi; to'rtinchidan, tahliliy amallar orqali daromadlar dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlar tekshiriladi; beshinchidan, aniqlangan risklar bo'yicha qo'shimcha auditorlik amallari belgilanadi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditining birinchi bosqichi audit obyekti va audit risklarini aniqlashdan boshlanadi. Daromadlar bo'yicha asosiy risklar sug'urta mukofotlarini noto'g'ri davrda tan olish, shartnoma summalarini hisob registrlariga xato o'tkazish, qayta sug'urtalash ulushini noto'g'ri aks ettirish, ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini yetarli shakllantirmaslik, debitorlik qarzlarning undirish imkoniyatini noto'g'ri baholash hamda investitsion daromadlarni noto'g'ri tasniflash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1-jadval.

Sug'urta xizmatlari daromadlari auditini bo'yicha asosiy risklar va auditorlik javob amallari¹

№	Audit riski	Auditda tekshiriladigan asosiy manbalar	Auditorlik javob amallari
1	Sug'urta mukofotining noto'g'ri davrda tan olinishi	Sug'urta shartnomasi, polis, to'lov jadvali, ishlab topilmagan mukofotlar hisob-kitobi	Shartnoma muddati va hisob davrini solishtirish, mukofotni davrlar bo'yicha qayta hisoblash
2	Daromadlarning to'liq aks ettirilmasligi	Polislar reyestri, shartnomalar reyestri, analitik hisob registrlari	Rasmiylashtirilgan polislar bo'yicha barcha mukofotlar hisobga olinganligini tekshirish
3	Qayta sug'urtalash ulushining noto'g'ri aks ettirilishi	Qayta sug'urtalash shartnomalari, bordro, komissiya hisob-kitoblari	Qayta sug'urta mukofoti, komissiya va tanyemalarni shartnoma shartlari bilan taqqoslash
4	Debitorlik qarzlarning real baholanmasligi	Debitorlik qarzlari reyestri, solishtirma dalolatnomalar, bank ko'chirmalari	Qarzdorlik muddatini tahlil qilish, tashqi tasdiqlar olish, shubhali qarzlarni baholash
5	Investitsion daromadlarning noto'g'ri tasniflanishi	Depozit shartnomalari, qimmatli qog'ozlar hujjatlari, foiz va dividend hisob-kitoblari	Investitsion daromad mavjudligi va hisoblangan davrini tekshirish

1-jadvaldan ko'rinadiki, sug'urta xizmatlari daromadlari auditida auditorning asosiy vazifasi daromad summasini oddiy arifmetik tekshirish bilan cheklanmaydi. Auditor daromadni yuzaga keltirgan shartnoma, polis, to'lov hujjati, buxgalteriya yozuvi, qayta sug'urtalash hujjati va zaxira hisob-kitobini yagona zanjir sifatida tekshirishi kerak. Aynan ushbu zanjirdagi uzilish yoki mos kelmaslik moliyaviy hisobotlarda muhim xatolik yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sug'urta daromadlari auditida ichki nazorat tizimini baholash alohida ahamiyatga ega. Agar shartnomalarni tasdiqlash, polislarini rasmiylashtirish, mukofotlarni hisoblash, to'lovlarni qabul qilish, qarzdorliklarni kuzatish va zaxiralarni shakllantirish bo'yicha ichki nazorat kuchli bo'lsa, auditor ayrim moddalar bo'yicha nazorat testlariga tayanishi mumkin. Aksincha, ichki nazorat sust bo'lsa, auditor mazmunan tekshirish amallarini kengaytirishi lozim.

¹ Muallif ishlarnasi

2-jadval.

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditi uchun axborot manbalari tizimi²

Axborot manbasi	Mazmuni	Auditdagi ahamiyati
Sug'urta shartnomalari va polislar	Sug'urta obyekt, summa, mukofot, muddat va sug'urta hodisasi shartlari aks ettiriladi	Daromadning huquqiy asosini va tegishli davrga mansubligini tasdiqlaydi
Mukofot hisob-kitoblari va tariflar	Tarif stavkasi, sug'urta summasi, risk darajasi va to'lov muddati ko'rsatiladi	Mukofot summasi asosli hisoblanganligini baholash imkonini beradi
Bank va kassa hujjatlari	Pul mablag'lari kelib tushishi va harakati aks ettiriladi	Hisoblangan daromad bilan haqiqiy tushum o'rtasidagi tafovut aniqlanadi
Buxgalteriya registrlari	Jurnal-orderlar, bosh kitob, analitik hisob kartochkalari va oborot-qoldiq vedomostlari	Daromadlarning schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligini tekshiradi
Qayta sug'urtalash hujjatlari	Riskni berish yoki qabul qilish, komissiya va tanyema hisob-kitoblari mavjud bo'ladi	Qayta sug'urtalash daromad va xarajatlarning asoslanganligini tasdiqlaydi
Sug'urta zaxiralari hisob-kitobi	Ishlab topilgan va ishlab topilmagan mukofotlar, texnik zaxiralar hisoblanadi	Daromadlar tegishli davrga to'g'ri taqsimlanganligini baholaydi

Tahliliy amallar daromadlar auditing muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular auditor uchun g'ayrioddiy o'zgarishlar, nomutanosibliklar va ehtimoliy xatoliklarni aniqlash imkonini beradi. Sug'urta tashkilotlarida tahliliy amallar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: sug'urta mukofotlari dinamikasi, sug'urta xizmatlari bo'yicha sof tushum, qayta sug'urtalash ta'siri, investitsion daromadlar, davr xarajatlari, debitorlik qarzlari va sof foyda ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik.

3-jadval.

"O'zbekinvest" AJ misolida ayrim daromad va natija ko'rsatkichlarining tahlili

Ko'rsatkichlar	2024-yil, ming so'm	2025-yil, ming so'm	O'zgarish, ming so'm	O'sish sur'ati, %
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan sof tushum	515 058 546,0	570 813 184,0	55 754 638,0	110,8
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan yalpi foyda	48 456 694,0	80 581 214,0	32 124 520,0	166,3
Davr xarajatlari	110 857 266,0	114 087 512,0	3 230 246,0	102,9
Asosiy faoliyatning boshqa daromdlari	6 065 046,0	6 256 841,0	191 795,0	103,2
Asosiy faoliyat natijasi (taxminan)	-56 335 526,0	-27 249 457,0	29 086 069,0	48,4*

Izoh: asosiy faoliyat natijasidagi 48,4 foiz ko'rsatkich zarar hajmining 2024-yilga nisbatan kamayishini bildiradi.

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan sof tushum 2024-yilga nisbatan 55 754 638,0 ming so'mga yoki 10,8 foizga oshgan. Yalpi foydaning 66,3 foizga o'sishi daromadlar tarkibida ijobiy o'zgarish bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davr xarajatlari ham 3 230 246,0 ming so'mga oshgan. Natijada asosiy faoliyat zararining kamayishi kuzatilgan bo'lsa-da, u hali ham salbiy natijada qolmoqda. Auditor bunday holatda daromadlarning o'sishi real shartnomalar va pul tushumlari bilan tasdiqlanganligini, xarajatlar o'sishi esa sug'urta faoliyatining kengayishi bilan mutanosibligini tekshirishi zarur.

Sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditida omilli tahlil quyidagi soddalashtirilgan model asosida olib borilishi mumkin:

$$SFD = SSTD + QSD + ID + BOD - SX - DX$$

Bu yerda: SFD – sof foyda yoki asosiy moliyaviy natija; SSTD – sug'urta xizmatlaridan sof tushum; QSD – qayta sug'urtalashdan sof daromad; ID – investitsion daromadlar; BOD – boshqa operatsion daromadlar; SX – sug'urta xizmatlari bo'yicha xarajatlar; DX – davr xarajatlari. Mazkur model auditor uchun yakuniy moliyaviy natijaga qaysi omillar ko'proq ta'sir qilganini aniqlash imkonini beradi.

Daromadlar auditi sifatini oshirish uchun auditorlik dasturi quyidagi bloklardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq: rejalashtirish va risklarni baholash; sug'urta shartnomalari va polislar bo'yicha testlar; mukofotlarni tan olish va zaxira hisob-kitoblarni tekshirish; qayta sug'urtalash operatsiyalarini tekshirish; bank tushumlari va debitorlik qarzlarni tasdiqlash; tahliliy amallar; yakuniy xulosalarni shakllantirish. Ushbu bloklar o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasining yetarlicha bajarilmasligi auditorlik fikrining asoslanganligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4-jadval.

Sug'urta daromadlari auditini takomillashtirish bo'yicha tavsiya etiladigan model³

Bosqich	Mazmuni	Kutiladigan natija
1. Risklarni baholash	Daromadlar tarkibi, sug'urta portfeli, qayta sug'urtalash ulushi va zaxiralar tahlil qilinadi	Muhim xatolik xavfi yuqori bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi
2. Ichki nazorat testlari	Shartnoma tuzish, polis berish, mukofot hisoblash va pul tushumlarini nazorat qilish jarayoni tekshiriladi	Nazorat tizimiga tayanish darajasi belgilanadi
3. Mazmunan tekshirish amallari	Shartnoma, polis, bank hujjati, hisob registri va hisobot ko'rsatkichlari solishtiriladi	Daromadlarning mavjudligi, to'liqligi va aniqligi tasdiqlanadi
4. MHXS 17 mezonlari asosida baholash	Sug'urta shartnomalari, majburiyatlar va daromadlarni tan olish tamoyillari ko'rib chiqiladi	Hisobotning xalqaro standartlarga mosligi baholanadi
5. Tahliliy amallar va omilli tahlil	Daromadlar, xarajatlar, zaxiralar, debitorlik qarzlari va foyda dinamikasi o'rganiladi	G'ayrioddiy tafovutlar va audit xulosasi uchun muhim dalillar aniqlanadi
6. Yakuniy umumlashtirish	Aniqlangan xatoliklar, risklar va tavsiyalar hujjatlashtiriladi	Auditorlik fikri asoslangan va dalillarga tayangan holda shakllantiriladi

Taklif etilayotgan modelning afzalligi shundaki, unda sug'urta daromadlari auditiga faqat buxgalteriya yozuvlarini tekshirish nuqtayi nazaridan emas, balki sug'urta faoliyatining iqtisodiy mazmuni, risklar tabiati, shartnomalar muddati va moliyaviy hisobot standartlari talablari bilan bog'liq holda yondashiladi. Bu esa auditorlik dalillarining sifatini oshiradi va moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun ishonchli axborot shakllanishiga xizmat qiladi.

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

Uchinchi masala investitsion daromadlar bilan bog'liq. Sug'urta tashkilotlarida vaqtincha bo'sh mablag'lar depozitlar, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa moliyaviy instrumentlarga joylashtiriladi. Bu daromadlar sug'urta xizmatlari natijasidan alohida tasniflanishi kerak. Aks holda sug'urta faoliyatining real rentabelligi noto'g'ri baholanishi mumkin.

To'rtinchi masala raqamlashtirish bilan bog'liq. Sug'urta tashkilotlarida shartnomalar, polislar va to'lovlar elektron tizimlar orqali yuritilayotgan sharoitda auditor raqamli axborot bazalarining ishonchligi, ma'lumotlar o'zgartirilishi bo'yicha nazoratlar, elektron hujjatlarning yaxlitligi va tizimlararo integratsiya sifatini ham baholashi kerak. Bu esa auditda axborot texnologiyalari nazoratlarini qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditi murakkab va ko'p bosqichli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Sug'urta daromadlari sug'urta mukofotlari, qayta sug'urtalash operatsiyalari, investitsion daromadlar, komission mukofotlar va boshqa operatsion tushumlar orqali shakllangani sababli auditorlik tekshiruvini ham kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Daromadlarning to'liqligi, aniqligi, tegishli davrga mansubligi va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilishi auditorlik dalillari bilan tasdiqlanishi zarur.

Maqola natijalariga asosan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– sug'urta tashkilotlarida daromadlar auditini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, bunda sug'urta mukofotlari, qayta

sug'urtalash, zaxiralar va debitorlik qarzlari alohida risk yo'nalishlari sifatida baholanishi lozim;

– daromadlarni tan olishda shartnoma muddati, sug'urta himoyasi ko'rsatilgan davr va ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini majburiy audit amali sifatida tekshirish maqsadga muvofiq;

– qayta sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha komissiya daromadlari, tanyemalar va qoplamalarni shartnomalar, bordro va solishtirma dalolatnomalar asosida alohida nazorat qilish zarur;

– investitsion daromadlarni sug'urta xizmatlari daromadlari bilan aralashtirmasdan, moliyaviy hisobotda to'g'ri tasniflash va auditda alohida tahlil qilish kerak;

– MHXS 17 talablari asosida sug'urta shartnomalari, majburiyatlar, daromadlar va ochib berishlar bo'yicha maxsus audit dasturi ishlab chiqilishi lozim;

– auditorlik xulosasini shakllantirishda tahliliy amallar natijalari, omilli tahlil ko'rsatkichlari va muhim favovutlar bo'yicha izohlar alohida hujjatlashtirilishi zarur.

Umuman olganda, sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini takomillashtirish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatining shaffoqligini ta'minlash va sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References):

1. International Accounting Standards Board. IFRS 17 Insurance Contracts: Effects Analysis. London: IFRS Foundation, 2023.
2. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 18th Edition. New York: Pearson Education, 2024.
3. Eilifsen A., Messier W.F., Glover S.M., Prawitt D.F. Auditing and Assurance Services. 5th Edition. London: McGraw-Hill Education, 2023.
4. Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M. Digital Transformation and Artificial Intelligence in Auditing // Journal of Information Systems. 2024. Vol. 38(2). pp. 45–62.
5. Eulerich M., Lenz R. Internal Auditing and Corporate Governance in Financial Institutions // Managerial Auditing Journal. 2023. Vol. 38(6). pp. 721–739.
6. Deloitte. Global Insurance Industry Outlook 2025. Deloitte Insights, 2025.
7. Karimov B., Raximov J. O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari auditini rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024. №4. 112–120-b.
8. KPMG. Insurance Accounting and Auditing Developments. KPMG International, 2024.
9. PwC. Insurance 2030: ESG Reporting, Risk Management and Audit Challenges. PwC Global Report, 2025.